NORBOYEVA Surayyo O‘razali qizi

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi magsitranti

TASAVVUF ULAMOLARI ASARLARIDA NAFS TURLARI VA TARBIYASI MASALALARI

ISSUES OF NAFS TYPES AND EDUCATION IN THE WORKS OF SUFI SCHOLARS

ВОПРОСЫ ВИДОВ И ВОСПИТАНИЯ НАФС В РАБОТАХ УЧЕНЫХ СУФИЗМА

Annotatsiya: *Tasavvufning asosiy mavzularidan biri nafs va uning mohiyati to‘g‘risida ham dunyo ilm-fanida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Tasavvufning diniy fenomen sifatidagi psixologik mohiyati, tarixiy-tadrijiy rivojlanish bosqichlari, tasavvuf ta’limotini tadqiq etishning metodologik muammolari, tasavvuf psixologiyasining predmeti bilan bog‘liq bo‘lgan “ruh”, “nafs” va “psixika” masalalari, tasavvuf psixologiyasining fan sifatidagi muammolari va yechimlari, o‘zlikni anglash va takomillashtirish, ruhiy tarbiya, tasavvufning kognitiv psixologik nazariyasi, zamonaviy shaxs psixologiyasida tasavvufning dolzarb masalalari, tasavvufning psixologiyadagi “Men” konsepsiyasi talqini, psixologiya bilan tasavvufning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganilmoqda. Ushbu maqolada nafs, uning turlari va uni tarbiyalash yo‘llari borasida fikr bildirgan tasavvuf ulamolarning fikrlari tahlil qilingan.*

Tayanch so‘zlar: *nafs, tasavvuf, nafsi ammora, nafsi lavvoma, nafsi mutmainna*

Annotation: *One of the main topics of Sufism is the soul and its essence, and a number of studies are being carried out in world science. Psychological essence of Sufism as a religious phenomenon, stages of historical and gradual development, methodological problems of researching Sufism, issues of «spirit» (ruh), «soul» (nafs) and «psyche» related to the subject of Sufism psychology, problems of Sufism psychology as a science and solutions, self-awareness and improvement, spiritual education, cognitive psychological theory of Sufism, topical issues of Sufism in modern personality psychology, interpretation of Sufism’s concept of «I» in psychology, correlation between psychology and Sufism. This article analyzes the opinions of mystical scholars who expressed their views on the soul, its types and ways of educating it.*

Key words: *nafs, tasawwuf, nafsi ammara, nafsi lavvoma, nafsi mutmainna*

Аннотация: *Одной из основных тем суфизма является душа и ее сущность, и в мировой науке проводится ряд исследований. Психологическая сущность суфизма как религиозного явления, этапы исторического и поэтапного развития, методологические проблемы исследования суфизма, вопросы «духа» (рух), «души» (нафс) и «психики», относящиеся к предмету суфийской психологии, проблемы суфийской психологии как науки и пути решения, самосознание и совершенствование, духовное образование, когнитивно-психологическая теория суфизма, актуальные проблемы суфизма в современной психологии личности, интерпретация суфийской концепции «Я» в психологии, соотношение психологии и суфизма. В данной статье анализируются мнения ученых-суфиев, выразивших свои взгляды о душе, ее виды и пути ее воспитания.*

Ключевые слова: *нафс, тасаввуф, нафси аммара, нафси лаввама, нафси мутмаинна.*

KIRISH

Tasavvufda “nafs” mavzusi ilohiyot va falsafadan farqli tarzda talqin qilinadi. Tasavvuf

namoyandalari odatda nafsning tabiati, birligi, jismi va mohiyati, avval yoki undan keyin yaratilishi kabi mavzulardan ko‘ra, uning zaif tomonlari, hiyla-nayranglari, yomonliklari, kasalliklari, ularni davolash yo‘llari, uning yomonliklaridan himoya qilish va o‘z-o‘zini tarbiyalash kabi masalalarga e’tibor qaratganlar.

Tasavvufda nafsga gunoh va xatolarning manbasi sifatida qaraladi. Bunga asosiy dalil sifatida Yusuf surasida zikr qilingan “nafsi ammora” keltiriladi. Bundan tashqari Qur’oni karimning “Senga yetgan yaxshilik Allohdandir. Va senga yetgan yomonlik nafsingdandir” *(Niso, 79)* [1:30] ma’nosidagi oyatida yoki “Allohim! Nafsimizning yomonliklaridan Sendan panoh so‘raymiz” mazmunidagi hadislarda ham nafs yomonlik sababchisi sifatida zikr qilingan. Tasavvuf namoyandalaridan Abu Abdulloh Horis Muhosibiy (786-857) o‘zining “ar-Rioya li huquqillah” asarida nafsga quyidagicha ta’rif bergan: “Yomonliklarning sababchisi sifatida shaytonning yordamchisi bo‘lgan nafs insonning ichidagi eng katta dushmanidir. Shuning uchun ham “Allohim! Bir lahzaga ham meni nafsim ixtiyoriga tashlab qo‘yma!”, deb duo qilinadi” [2:251].

Ilk obid va zohidlar zuhdni o‘z hayotlarining asosi sifatida qabul qilgan bo‘lsalar ham nafsni, uning yomonliklarini eng katta dushman sifatida bilib, nafsni “ichimizdagi dushman” deb nomlashgan. Ularga ko‘ra gunoh va xatolarga moyil bo‘lgan nafs ibodatdan va yaxshi ishlarni amalga oshirishdan qochadi. Shu sababdan zohid hayot tamoyili sifatida doim nafsga qarshi turish, ezgulik va najotga erishish uchun uni yengish zarur, deb hisoblangan. “Sening eng katta dushmaning nafsingdir” (Bayhaqiy rivoyati) hadisiga tayangan zohid va sufiylar bu dushmanga qarshi olib borgan mujodalalarini “katta jihod” deb nomlaganlar. Zohidlar shayton nafsni vosita qilib insonlarni gunohga chaqirishi sababidan uni shaytondan ko‘ra xavfliroq deb bilganlar.

ASOSIY QISM

Tasavvufda nafsni taftish qilish tamoyilini ilk marta qo‘llagani uchun “Muhosibiy” nomi bilan mashhur bo‘lgan ilk tasavvuf namoyandalaridan biri Horis ibn As’ad o‘zining “ar-Rioya”, “Adabu-n-nufus”, “Muotabatu-n-nafs” va “al-Vasoyo” nomli asarlarida nafsning hiyla-nayranglari, ayyorlik va xiyonatlari, odamlarga qo‘ygan tuzoqlari, yechimlari haqida so‘z yuritgan hamda undan himoya qilish, uni tarbiyalash va nazorat qilish yo‘llari bo‘yicha psixologik tahlillar o‘tkazgan.

Mavorunnahrlik mashhur olim Hakim Termiziy ham “Kitob ar-riyoza va adab an-nafs”, “al-Masoil al-maknuna”, “Manozil al-ibad” asarlarida nafs haqida batasfil tushuntirishlar bergan. Sahl ibn Abdulloh Tustariy tasavvufni tushuntirishda riyozatni, mujohadani va nafs ustidan g‘olib bo‘lish yo‘llari kabi masalalarni asos qilib olgan. Tustariyga ko‘ra nafsni yengishning eng birinchi usuli uni ochlik, sabr va riyozat “qilichi” bilan kesish hisoblanadi [3:81]. Xotim al-Asamga ko‘ra esa tasavvuf yo‘liga kirgan inson nafsini to‘rt o‘lim – ochlik (oq), aziyat (qora), muxolafat (qizil) va yamoq kiyim kiyish (yashil) kabi turlardan o‘tkazish kerak [4:93]. Zunnun Misriy esa nafsni Alloh bilan banda o‘rtasidagi eng qalin parda, deb atagan [4:93]. Abul Qosim Qushayriy “ar-Risola” asarida Haq taolo Boyazid Bistomiyga “Nafsingni tark qilib, Biz tomonga kel”, deb xitob qilgan, u esa bunga javoban ilon o‘z po‘stini qanday tashlasa, o‘z nafsidan shunday voz kechgan, deb zikr qilgan [5:719].

Tasavvuf olimlari Josiya surasining “Aytingchi, havoyi nafsini iloh qilib olgan, Alloh uni bilib turib zalolatga solgan va qulog‘iga hamda qalbiga muhr bosib, ko‘ziga parda tortib qo‘ygan kimsani Allohdan boshqa kim hidoyat qila oladir?! Eslamaysizlarmi?!” [1:501] oyatini dalil qilib, nafsni insonning buti sifatida ifodalaganlar. Abu Tolib Makkiy “Quut al-qulub” asarida aytadi: “Nafs insonning butidir. Haqqa erishmoq uchun

 ISSN 2181-9572

butni sindirish kerak. “Va ammo, kim Rabbisining maqomidan qo‘rqqan va o‘z nafsini havolanib ketishidan qaytargan bo‘lsa... Bas, albatta, jannat (unga) o‘rin bo‘ladir” *(Noziyot, 40-41)* [1:584] oyati bunga ishora qiladi. Nafs o‘zini sevuvchi, o‘ziga sig‘inuvchi, o‘zini qadrlovchi xudbin va takabburdir. Tuproqdan yaratilgani uchun zaif, loy sababidan ziqna, balchiqdan bo‘lgani uchun shahvatli, pishgan sopol sababli esa johildir. Zaiflik, ziqnalik, shahvat va jaholat uning asosiy xususiyatlaridandir” [6:10].

Abu Homid G‘azzoliy esa nafs tabiatini quyidagicha izohlagan: “Nafs tabiatida vahshiylik, hayvonlik, shaytonlik va hukmronlik bor. Nafsdagi adovat va tajovuzning manbai vahshiylik, ochko‘zlikning manbai hayvonlik, hiylakorlik va ayyorlik manbai shaytonlik, takabburlik va har narsaga bir o‘zi hukm qilish istagi manbai esa hukmronlikdir. Bu to‘rt sifat itga, cho‘chqaga, shaytonga va insonga mos keladi. Nafsda bularning hammasi mavjud” [3:10].

Imom Qushayriyning fikricha, “nafs bandaning yomon sifatlari, odatlari va xatti-harakatlariga berilgan ismdir” [5:305]. Tasavvufda nafsga butunlay yo‘q qilinishi kerak bo‘lgan narsa sifatida qaraladi. Nafs butunlay salbiy va “o‘ldirilishi” kerak. Tasavvufda nafsning yetti bosqich mavjud bo‘lib, ular o‘lik va vaqtinchalikdan o‘lmaslikka ko‘tarilishi sifatida talqin etiladi.

Tasavvufda nafsni turli metaforalar bilan ta’riflangan. Masalan, u goh tajovuzkor itga, ayyor tulkiga, sichqonga, dahshatli ilon va ajdahoga, goh Fir’avn va Namrudga, goh butga, goh zindonga, goh jahannamga, goh haqiqat va qonunni bilmaydigan o‘g‘riga, uni jodugarga, goh odamlarni yo‘ldan ozdiruvchi ayolga qiyoslangan. Mavlono Jaloliddin Rumiy nafsning o‘ng qo‘lida kitob tutgan odamning oldiga kelishini, lekin uni chap qo‘liga yashirgan qilich bilan o‘ldirishini, suv topish va’dasi bilan quduqqa olib borishini, so‘ng uni quduqqa uloqtirishini tashbeh bilan tushuntirgan [7:27, 260]. So‘fiylarning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lgan malomatiya harakati har bir masalada nafsni qoralash, uning kamchiliklari haqida gapirish, boshqalarni haq yoki uzrli deb bilish, nafsni nuqsonli ko‘rish va Alloh uchun nafsga dushman bo‘lishga asoslangan [8:151, 165].

Boshqa tomondan, qanchalik yomon bo‘lmasin, nafsni isloh qilish, tarbiyalash va o‘rgatilgan nafsdan oxirat amallari uchun foyda olish mumkin. Darhaqiqat, harom itning o‘ljasi o‘rgatilgan bo‘lsa, toza va halol bo‘lgani kabi, o‘rgatilgan va tarbiyalangan nafs ham toza bo‘ladi. Tasavvufda o‘z-o‘zini tarbiyalashga shiddatli kurash va zohidlik bilan bog‘liq mashaqqatli hayot orqali erishiladi. Shu boisdan ham ko‘pincha nafsga ergashmaslik, undan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlardan ehtiyot va ogoh bo‘lish lozimligi ta’kidlanadi. G‘azzoliy nafsning g‘azab va shahvat tabiatidan kelib chiqadigan salbiyliklarni yo‘q qilishning na iloji va na to‘g‘ri ekanligini ta’kidlab, uni aql va vahiy nazorati ostida tutish lozimligini ta’kidlaydi.

Tasavvufda insonning o‘zini bilishi juda muhim. O‘zini bilish – Xudoni bilishning eng sog‘lom yo‘lidir. “O‘zini tanigan Rabbini ham taniydi” iborasi shu mazmunda ko‘p qo‘llanib, ba’zan hadis sifatida ham keltiriladi.

Olimlar nafs darajalarini quyidagicha sanab o‘tadilar: 1. Ammora: Zulmat maskani; 2. Lavvoma: Nurlar darajasi; 3. Mulhima: Sirlarga kirish darajasi; 4. Mutmainna: Komillik darajasi; 5. Roziya: Visol, Mavloga yetib borish darajasi; 6. Marziyya: Mavloning amallarining namoyon bo‘lish darajasi; 7. Komila: Mavloning mavqelari, ismlari va sifatlarining namoyon bo‘lish darajasi. Ushbu darajalar tasavvufda “atvori sab’a” deb nomlanadi.

Ba’zi tariqatlarda Alloh taoloning yetti ismlaridan birini (La ilaha illalloh, Alloh, Hu, Haq, Hay, Qayyum, Qahhor) bu yetti darajaning har birida zikr qilish bilan o‘z-o‘zini tarbiyalash (sayru-suluk) amalga oshiriladi. Masalan, nafsi ammora darajasida bo‘lgan banda, murshid tomonidan belgilab qo‘yilgan bir necha marta

kalima-i tavhidni o‘qiydi; U lavvoma darajasiga yetgach, uning ismi o‘zgarib, ulug‘lik (Alloh) nomini zikr qila boshlaydi. Mulhimada Hu ismi, mutmainnada Haq ismi zikr qilinadi. Solik yettinchi ism (Qahhor) zikriga yetganda, komil nafs darajasiga yetadi.

Xuddi shunday yettilik tasnifi doirasida har bir darajaning yo‘nalishi (ilalloh, alalalloh, billah, anillah, fillah, maalloh, lilloh), dunyosi (shahodat, ibrat, arvoh, unutish, haqiqat), holi (zavq, ishtiyoq, ishq, vasila, hayrat, fano fil-fano, baqo bil-baqo), o‘rni (sadr, qalb, ruh, sir, sirrus-sir, xofiy, axfo), manbasi (shariat, tariqat, haqiqat, ma’rufat, valoyat, siddiqiyat, qurbat), guvohi (tavhidi af’ol, tavhid-i sifat, tavhid-i zat, jam, hazratul-jam, jamul-jam) va nuri (moviy, sariq, qizil, qora, yashil, oq, rangsizlik) mavjud. Misol uchun nafsi ammora darajasidagi kalimai tavhidni zikr qilgan solikning yo‘nalishi “ilalloh”, dunyosi “shahodat”, holi “zavq”, o‘rni “sadr”, manbasi “shariat”, shohidi “tavhidi af’ol”, nuri “moviy”dir. Murshid tarbiyasi bilan ammora nafsdan lavvoma nafsga o‘tkan solik “Ismi jalola”ni ayta boshlasa, yo‘nalishi “alalloh”, dunyosi “ibrat”, holi “ishtiyoq”, o‘rni “qalb”, manbasi “tariqat”, shohidi “tavhid-i sifat”, nuri “sariq” bo‘ladi. Solik o‘z sulukini shu tarzda davom ettirish bilan komil nafs darajasiga yetadi va sulukining nafs bilan bog‘liq qismini tamomlaganligi qabul qilinadi.

Nafsning ko‘plab sifatlari, xususiyatlari, xatti-harakatlari, holatlari, ko‘rinishlari va munosabatlari mavjud. Nafs ko‘p ranglarni qabul qilishi va turli xil tasvirlarni berishi mumkin. Kishilarning ruhidagi tafovutlar tanalaridagi farqlardan, ruhidagi qobiliyatlar esa jismoniy va aqliy qobiliyatlardan ancha ko‘p.

Muhyiddin ibn Arabiyning fikricha, inson uch unsurdan iborat: jismoniy tana, jon va nafs. Jismoniy vujudni makonda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, zamonda davomiyligi bo‘lgan, buzilib, o‘zgarib turadigan moddiy shakl deb ta’riflagan Ibn Arabiy nafsning uch sifati haqida gapiradi. Bular nabotiy, hayvoniy va aqliy nafslardir. Aqliy nafs aql emas, balki aql uning ikkinchi darajali xususiyatidir. Nabotiy nafsning asosiy vazifasi oziq-ovqat izlash va uni tanaga aylantirishdir. Hayvon nafsining o‘rni yurakdir, u moddiydir, barcha odamlar va hayvonlarda hayvoniy nafs mavjud. Aqliy nafs esa o‘zining mutlaq mohiyatida idrok etuvchi, har qanday gunohlardan poklanib, ozod bo‘lib tug‘iladi; U buzilmas va abadiydir. U tana bilan bo‘lsa, u bilan ishlaydi, lekin u tanadan butunlay mustaqildir. Inson vafot etganda, aqliy nafs kulliy nafs aylanadi. Ruh bu uch nafsning yetakchisidir.

Abu Abdurahmon Sulamiy –“Nafs illatlari va ularning muolajasi” asarida nafs tarbiyasiga oid quyidagilarni aytadi:

“Bilingki, inson nafsi uchga bo‘linadi: nafsi mutmainna, nafsi lavvoma va nafsi ammora.

Nafsi mutmainna – orom topgan qalb, Alloh taoloning Rabbi ekaniga mustahkam ishonch hosil qilgan, Allohning va’dalariga sidqidildan ishongan, Uning har bir so‘zi haqligini tasdiqlaydigan, Rabbining bergan har bir sinoviga sabr bilan chidagan qalb.

Bu iymon keltirgan nafsdir, oxiratda Alloh uni sharmanda qilmaydi, uning amallari kitobi o‘ng qo‘liga topshiriladi va uning yuzi oppoq, yorug‘ yuzlardan bo‘ladi. Bunday nafs yaxshi-yomon, foyda-yu zararning barchasi ilohiy taqdir ekaniga bo‘ysunadi.

Alloh taolo O‘zining va’dalariga qat’iy ishongan va Uning roziligini yaxshi amallar bilan qozonishga intilgan nafsga bunday ishora qiladi: **“Ey, xotirjam nafs! Rabbingga sen Undan, U sendan rozi bo‘lgan holda qayt!”** ***(Fajr, 27-28)*** **[1:594]**.

Nafsi lavvoma – gunohkor nafs, yaxshi va yomon ishlari uchun o‘zini doimo tanbehlaydi, quvonchda ham, qayg‘uda ham sabr qilmaydi, har doim o‘zidan norozi. U o‘zini tinmay tanbeh qilib: “Nega men bunday qilishim kerak? Buni boshqacha qilish kerak edi!» Bu nafsning o‘zi yaxshi ham, yomon ham emas. Shunchaki u hech qachon o‘z-o‘zidan qoniqmaydi. Tanbeh qiluvchi

 ISSN 2181-9572

(malomatchi) nafs imkoniyatlarni qo‘ldan boy bergani uchun o‘zidan juda xafa bo‘ladi va o‘z harakatlaridan hech qachon qoniqmaydi. U yaxshi ish qilsa: “Ko‘proq qilishim kerak edi!” deydi. Gunoh ish qilganida esa: “Nega shunday qildim?!” deb afsuslanadi. Alloh taolo bunday malomatchi nafs bilan qasam ichib: **“Va malomatchi nafs bilan qasam** (qiyomat kuni qayta tirilib, hisob-kitob qilinursiz)**!”** ***(Qiyomat, 2)*** **[1:577].**

Nafsi ammora – yomonlikka buyuruvchi nafsdir. Alloh taolo Yusuf alayhissalom haqlaridagi surada bunday marhamat qiladi: “**Va o‘z nafsimni oqlamayman. Albatta, nafs, agar Rabbim rahm qilmasa, yomonlikka undovchidir. Albatta, Rabbim mag‘firatli va bilguvchi zotdir”** ***(Yusuf, 53)*** **[1:242].**

Qolaversa, Alloh taolo bunday nafs haqida quyidagi ikki oyatda bunday marhamat qiladi: “**Ammo, kimki Rabbisining** (huzurida) **turishi** (va hisobot berishi)**dan qo‘rqqan va nafsini havolanib ketishidan qaytargan bo‘lsa…”** ***(Noziyot, 40)*** **[1:584].**

“Ey, Muhammad!) **Havoyi nafsini o‘ziga «iloh» qilib olgan va Alloh uni** (azaldan gumroh bo‘lishini) **bilgan holda adashtirib, quloq va qalbini muhrlab, ko‘ziga parda tortib qo‘ygan kimsani ko‘rdingizmi?”** ***(Josiya, 23)*** **[1:501].**

Havoyi nafs ko‘zga ko‘rinmaydigan ma’bud bo‘lib, u quloqni yopib, ko‘zni to‘sib qo‘yadi. Yomonlikka buyuruvchi nafs shaytondan ko‘ra xavfliroqdir. Chunki shaytonning makri zaifdir. Alloh taolo Iblis haqida shunday deydi: **“... magar Iblis bosh tortdi, mutakabbirlik qildi va kofirlardan bo‘ldi”,** ***(Baqara, 34)*** **[1:6]**. Kibr esa nafsdan sodir bo‘ladi.

Alloh taolo bu nafsning yomon ishlarga moyilligini, yaxshiliklardan uzoqligini boshqa oyatlarda ham zikr qilgan.

Abu Hurayradan Abu Salama, Salama ibn Kuhayl, Sha’ba va Sufyon, Abu Osim, Ahmad ibn Husayn ibn Abon, Abdujabbor ibn Sirin va Ali ibn Amr roziyallohu anhu orqali yetib kelgan hadisda bunday rivoyat qilinadi: Rasulullo sollallohu alayhi vasallam: *“Odam alayhissalom yaratilgan loy (balo) baxtsizlik, havo va shahvat bilan aralashgan edi”,* dedilar.

Alloh taolo bunday marhamat qiladi: “**Alloh** (toati yo‘li)**da haqqoniy jiddu jahd qilingiz!”** ***(Haj, 78)*** **[1:341].** Ya’ni, nafsingizni tiyib turing, o‘tkinchi, bo‘sh orzu va istaklar sari yugurib ketishiga yo‘l qo‘ymang!”

Abu Abdurahmon Sulamiy boshqa bir asarida bunday deydi: *“Odamlar shahidlik deganda faqatgina jang maydonida o‘lim topishni tushunadilar. Holbuki, haqiqiy shahidlik nafsga bo‘ysunmaslik va uning istagiga qarshi chiqishdir”.*

Imom Rabboniy “Maktubot” asarida nafs masalasini alohida ta’kidlagan. Insonni imtihon qilish uchun yaratilgan nafs musulmon bo‘lmaganlarda ammora, musulmonlarda lavvoma, va mulhima, ishonchi kamolga yetgandan so‘ng mutmainna, Allohdan rozi bo‘lganda roziya, Alloh bandadan rozi bo‘lganda marziya va sofiya darajalariga yuksaladi.

“Nafs – insonga uning kamolga yetishmog‘i uchun berilgan vosita. Agar nafs berilmaganida edi, inson farishtaga o‘xshab bir maqomda qolar, unda yuksalish yoki quyiga tushish hodisalari bo‘lmas edi. Shu sababdan Alloh taolo Zariyat surasining 56-oyatida: “Jin va insonni faqat Menga ibodat qilish uchungina yaratdim”, deb xitob qilgan. Ushbu oyati karimada farishtalar va hayvonlarning tilga olinmagani ularning imtihon etilmasligini bildiradi”.

So‘fi Ollohyor –“Sabotul ojizin” asarida Nafsi shumning bayoni haqida quyidagi baytlarni bitgan.

Kel e kas, bo‘lma aknun tobei nafs,
So‘lur axshom, sabo bu gardani g‘afs.
Hama toatlaring xo‘biyu sofi,
Yaqin bilsang, erur nafsing xilofi.

Kel, ey inson, endi nafsinga tobe bo‘lma. Bu yo‘g‘on bo‘yning bir kun kelib tongdami yoki shomdami so‘ladi. Ya’ni, umring poyoniga yetadi. Hamma toatlarning yaxshisi va pokizasi,

shubhasiz, nafsga xilof ish qilishdir. Hadisi shariflarda nafs bilan kurashish dushmanga qarshi jihod qilishdan ham buyuk bir savobli ish ekani aytilgan.

Qo‘yar kajlikka doim nafsi bad yuz,
Qachon o‘t tuz yonar, yolborsang o‘ttuz.

Yomon nafs doimo egrilikka yuz tutadi. O‘ttiz marta yolborsang-da olov hech qachon to‘g‘ri yonmaydi. Nafs ham aslida olovmijoz bo‘lgani bois insonning g‘azabi tez alanga oladi. Ayrim nusxalarda oxirgi misra “Qachon u tuz yonar, yolborsang o‘ttuz” shaklida berilgan.

Erur nafsing dimog‘i turfa ellik,
Qachon ellik qilur yolborsang ellik.

Chunki nafsing boshida ko‘zga ko‘rinmas yel bordir. Bu yel seni yashirin turib yo‘ldan ozdirur. Yel o‘tning yonishini ajoyib egriliklarga tortgani kabi, kofir nafsning havosi, ya’ni yeli ham ko‘rinmas hiylalar bilan ohanrabo singari egriliklarga tortar. Shuning uchun nafsi kofiringa erk bermagil. Uni bo‘sh qo‘ysang ellik marta yolborsang-da, o‘zinga yel bo‘lmas, yovuz bo‘lur. Riyozat qal’asiga kirib, bu nafs bilan urushgin. Axiri g‘olib kelib, bahodir ruhing nafsingni boyagi yelli boshini kesib, taxtga o‘tirib, o‘z joyini egallar. So‘ngra fano filloh bo‘lib, boqiy fillohda qolur.

O‘zing past aylasang, nafsing zabardast,
Boshing chaynab solur, chun usturi mast.

O‘zingni tuban, nafsingni yuqori tutsang, axiri bir kun kelib, u baland nafsing mast tuya kabi boshingni chaynab, xarob qilur. Ya’ni, erkini qo‘liga bergan nafsing o‘zingni iymondan chiqarib, abadiy tamug‘lik qilur. Shunday ekan, bundayin kofir nafsinga qarshilik qiladi.

Tasavvuf olimlari nazdidagi nafs yetti darajasinining dalillari:

1. Nafsi ammora: Nafsi bu maqomda bo‘lgan kimsa Haqni inkor etadi, har doim yomon ishlarni qilishni rejalashtirib yuradi. Nafsi ammora – kofirlar va munofiqlarning nafsi. Ammora bosqichi nafsning zulmatdagi bosqichidirki, u bosqich faqat tuban axloq manbaidir. Yusuf surasining 53-oyatida: “Va o‘z nafsimni oqlamayman. Albatta, nafs, agar Rabbim rahm qilmasa, yomonlikka ko‘p undovchidir. Albatta, Rabbim mag‘firatli va bilguvchidir», dedi”, deyiladi.

Bu bosqichda bo‘lgan kimsalarda vasvasa bo‘lmaydi, ular jahannamdan qo‘rqmaydi. Bu toifa Alloh taolodan boshqa hamma narsadan qo‘rqadi. Eng qattiq qo‘rqadigani va nafratlanadigani o‘limdir. Ularning sevgilari ham nafslari uchundir.

2. Nafsi lavomma: Pushaymon bo‘lib o‘zini malomat qilgan nafs demakdir. U nur va zulmat yuzma-yuz bo‘lgan nafsdirki, Qur’oni karimda: “Va malomatchi nafs bilan qasam” deyilgan.

Nafsi bu holatda bo‘lgan kishilarda oz bo‘lsada, oxirotda hisob berish vahimasi bor. Bunday odamlar goh musulmonning, goh munkirning ishini qilib yuradi. Bu – musulmonlarning katta gunoh qilganlarining nafsi. Ularda ham o‘limdan qo‘rqish ko‘p, hisob berishdan qo‘rqish tuyg‘usi juda ozdir.

3. Nafsi mulhima:Asror (sirlar) maqomi bo‘lib, nafsi natiqa bu maqomda mulhimadir. Qur’oni karimda:

“Bas, u(nafs)ga fujurini va taqvosini bildirdi” *(Shams, 8)* [1:595], deyilgan.

Nafsi bu maqomda bo‘lganlar solihlardir. Ular o‘limdan qo‘rqadi, hisob berishning og‘irligidan yanada qattiqroq qo‘rqadi. Ular halol va haromga diqqatli bo‘lgan kishilardir.

4. Nafsi mutmainna:Yetuklik maqomi bo‘lib, nafsi natiqa bu maqomda mutmainnadir. Bu maqomda banda nafsining hoyu havaslarini jilovlab olib, uni sokinlashtirgan bo‘ladi. Qur’oni karimda Alloh taolo marhamat qilib: “Ey xotirjam nafs!” deydi.

5. Nafsi roziya: Vuslat (qovushmoq) maqomi bo‘lib, nafsi natiqa bu maqomda roziya nomini oladi. Qur’oni karimda: “Rabbingga sen Undan, U sendan rozi bo‘lgan holingda qayt!” deb amr qilinadi. Bu maqomda hali Alloh taolo nafsdan rozi bo‘lgani yo‘q, faqat nafs Allohdan rozi bo‘lgandir.

 ISSN 2181-9572

6. Nafsi marziya: Fe’llarning tajalliy etish maqomi bo‘lib, nafsi natiqa bu maqomda marziya otini oladi. Qur’oni karimda:

“Ey xotirjam nafs! Rabbingga sen Undan, U sendan rozi bo‘lgan holingda qayt!” deb amr qilgan.

Ana shu maqom bandalar yetisha oladigan eng yuksak martaba, bu darajaga yetgan qullar faqat payg‘ambarlik rutbasiga yeta olmaydilar, xolos. Bu maqom ilohiy ism va sifat nurlarining tajalliysi chaqmoq kabi chaqnab g‘oyib bo‘lib turadigan maqomdir. Bu martabada nafs Alloh taolodang rozi, Alloh taolo ham nafsdan rozidir.

Bu martabaning buyuklariga o‘lim yo‘qlik emas, vuslat, shabi aruz-nikoh kechasidir.

7. Nafsi komila yoki sofiya: Bu nafs payg‘ambarlarning, ulug‘ avliyolarning va xoslarning nafsi bo‘lib, nafsi natiqa bu maqomda sofiya nomini oladi. Bu martabada bo‘lgan buyuklarning ko‘nglida Zoti ilohiyning nurlari chaqmoq kabi chaqnab turadi va so‘nmaydi, har damda tajalliy etib turadi.

Qur’oni karimda Alloh taolo: “O‘zi yukli jon o‘zga jonning yukini ko‘tara olmas. Yuki og‘ir jon o‘z yukiga (boshqani) chaqirsa-da, undan hech bir narsa ko‘tarilmas. Garchi (chaqirilgan) qarindosh bo‘lsa ham. Sen faqat g‘aybdagi Rabbilaridan qo‘rqadigan va namozni to‘kis ado etganlarni ogohlantirursan. Kim poklansa, O‘zi uchun poklanur. Qaytish Allohgadir” *(Fotir, 18)* [1:436] deb amr qilgan. Ya’ni qiyomat kunida gunohi ko‘p jon uni yengillatish maqsadida eng yaqin qarindoshini yordamga chaqirsa ham, uning gunohidan biror narsa ko‘tarilmaydi. Chunki yaqin qarindoshning o‘zi yukini ko‘tara olmay xunob bo‘layotgan bo‘ladi. Kofir ham, mo‘min ham faqat Allohga qaytadi. Boshqaga emas. Ana o‘shanda Alloh taolo o‘zi bilib hisob-kitob qiladi. Kofir va osiy jazosini, mo‘min-musulmon mukofotini oladi.

XULOSA

Buyuk tasavvuf olimi Imom Rabboniy hazratlariga ko‘ra, bu yerda aytilgan ochlikdan murod ba’zi johil mutasavviflar tushuntirganidek faqat yemak-ichmoqdan qisib qo‘yish emas, zotan, hindu va buddaviy rohiblari ham uzoq muddat suvsiz va ochlikka toqat qila oladi, Ammo ular bundan faqat nafsining safosiga erisha oladi, xolos. Hazrati Imom “Maktubot”ida nafsni och qo‘ymoq nima ekanini quyidagicha tushuntiradi: “Nafsning istaganlarini qilmaslik, istamaganlarini qilish, nafsni mag‘lub etishning eng qulay yo‘li esa sunnatga uyg‘un yashamoq va qalbni mosuvodan (maxluqot sevgisidan) pok tutmoqdir”.

Tasavvufda nafsni poklash uchun quyidagilarga amal qilish zarurligi ta’kidlanadi:

1. nafsni riyo, ujb (o‘zidan faxrlanish), baxillik, ochko‘zlik, ta’ma, oxirat hisob-kitobidan xotirjam bo‘lib qolish kabi yomon illatlardan poklash;

2. nafsni ixlos, inobat (Alloh taologa qaytish), Allohdan qo‘rqish, shukr va kamtarlik kabi chiroyli xislatlar bilan go‘zal qilish;

3. farz ibodatlarni doimiy ado etib yurish, chunki Alloh taologa farzlardan ko‘ra sevimli amal yo‘q;

4. nafl ibodatlarni ko‘p qilish, chunki banda nafl ibodatlar bilan Alloh taologa yaqinlik hosil qilib boraveradi, hatto Alloh taolo bandasini yaxshi ko‘rib qoladi;

5. Qur’oni karimni tadabbur bilan qiroat qilish. Zero, Qur’on tilovati qalbni poklaydi, qalb poklansa, nafs ham poklanadi. Payg‘ambar (s.a.v.): “*Bu qalblar ham xuddi temir suv tekkanda zanglagani kabi zanglaydi*”, – dedilar. Shunda: “Ey, Allohning rasuli, nima qalbni sayqallaydi, zangini ketkazadi?” – deyildi. “*O‘limni ko‘p eslash va Qur’on ko‘p tilovat qilish*”, – dedilar (Bayhaqoy rivoyati)

6. ilm o‘rganish;

7. nafsni tergab turish va nafsning shariatga zid xohishlariga qarshi kurashish. Bu orqali inson

havoi nafs, shayton va dunyo lazzatlari ustidan g‘olib keladi. O‘tgan solihlardan biri Ibn Mehron rahmatullohi alayh: “*Kishi o‘z nafsini do‘stini tergagandan ham qattiqroq tergab turmaguncha, yeyish-ichishi va kiyimi (haloldan yo haromdan ekani)ni bilmagunicha, taqvodorlardan bo‘la olmaydi*”, – deganlar (Imom Termiziy rivoyati). Hasan Basriy rahmatullohi alayh: “*Bandaga o‘z nafsidan nasihatchi bo‘lsa va nafsni tergash e’tiborida tursa, u doim yaxshilikda bo‘ladi*”, – deganlar;

8. solih insonlar bilan suhbatlashish va xulqi buzuq odamlarning suhbatidan chetda bo‘lish.

Olimlar nafsni tasvirlovchi va tahlil qiluvchi asarlari axloq, psixologiya, ayniqsa, din psixologiyasi nuqtai nazaridan juda muhim. Horis Muhosibiy, Hakim Termiziy, Abu Tolib Makkiy, Hujviriy kabi tasavvuf olimlarining asarlarida bu borada qimmatli ma’lumotlar mavjud. Gazzoliyning “Ihyou ulumid-din”, Muhyiddin ibn Arabiyning “al-Futuhotul-makkiyya”, Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy” asarlari bu boradagi asosiy asarlardir. Fariduddin Attor, Yunus Emro kabi so‘fiy shoirlar nafs va uning fazilatlarini tasvirlovchi go‘zal baytlar qoldirgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2018. – 624 b.
2. Horis Musohibiy. Ar-Rioya li huquqillah. – Qohira: Dor al-Ma’rifa, 2015. – 550 b.
3. Abu Homid G‘azzoliy. Ihyou ulum ad-din. – Amman: Maktaba al-iyman, 1990. – J. III. – 550 b.
4. Sulamiy. Tabaqot. – Bayrut: Maktabat an-nur, 2006. – 214 b.
5. Abul Qosim Qushayriy. Risalatul Qushayriya. – Bag‘dod: Dor al-kitab al-arabiy, 2003. – 817 b.
6. Abu Tolib Makkiy. Quut al-qulub. – Bayrut: Dor sodir, 1995. – J. 1. – 358 b.
7. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy. – Qohira: Majlis al-a’la as-saqofa, 2002. – J. III. – 541 b.
8. Sulamiy. Usul al-malomatiya. – Bayrut: Maktabat an-nur, 2000. – 208 b.

 ISSN 2181-9572